

2015-yil - Keksalarni e'zozlash yili

**Tong yulduzi**

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:52 (67009)  
2014-yil  
29-dekabr

www.tongyulduzi.az

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

ZAVQ-U SHAVQQA TO'LSIN DILINGIZ,  
QUTLUG' BO'LSIN YANGI YILINGIZ!



MAXMADIYEV olgan suratlar

# YUKSAK MARRALARNI KO'ZLAB...

**Bugungi kunda mamlakatimizda har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Zero, sog'lom bola millat tayanchi, baxtli kelajak deganidir.**

Ortda qolayotgan «Sog'lom bola yili»ni sarhisob qilar ekanmiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan olamshumul o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari ko'z oldimizda namoyan bo'ladi. Birgina so'nggi uch yil davomida 61ta yangi maktab binosi qurilgani, 748 ta ta'lim muassasasi mukammal rekonstruksiya qilingani va ushbu maqsadlarga jami 787,1 milliard so'm mablag' sarflanganini aytish o'rinni. Shuningdek, 3 024 ta umumta'lim maktabi hamda 48 ta bolalar musiqa va san'at maktabi zamonaviy mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va musiqa cholg'u asboblari bilan jihozlandi.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturida maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha mutlaqo yangi dasturlarning ishlab chiqilishi va joriy etilishi, boshlang'ich sinflarda esa o'qitish sifatini yanada ko'tarish choralari belgilandi.

Prezidentimiz Konstitutsiya qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali anjumandagi ma'ruzasida bunday yangilanishlar, avvalo, atrof-dagilarning ertangi kunga munosabati va ishonchi tobora mustahkamlanib borayotganiga xizmat qilayotganini alohida e'tirof etdi:

«Biz bundan 17 yil oldin qabul qilgan, qo'lga kiritayotgan barcha yutuq va marralarimizning omili va zamini bo'lgan,

hammamizni, avvalo, bolalarimizning ong-u tafakkurini, hayotga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va istiqbolli maktab dasturi haqida alohida to'xtalib o'tishimiz zarur, deb o'ylayman.

... Eski tizimning qolip va aqidalaridan xoli bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan va hayotga qaraydigan, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir kuch sifatida maydonga chiqayotgan bugungi yosh avlodimiz ayni shu dasturlarning, biz amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarimizning mahsuli, desam, hech qanday xato bo'lmaydi».

Bugun o'quvchi-yoshlarimiz jahon miqyosida turli yo'nalishlar bo'yicha salmoqli yutuqlarga erishib kelmog'dalar. Xalqaro musobaqalarda yurtimiz o'quvchilari hamisha g'oliblar safidan joy olishmoqda. Bunga misol, Janubiy Koreyaning Tedjon shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida matematika bo'yicha xalqaro musobaqada 31 davlatdan kelgan 600 nafarga yaqin iqtidorli o'quvchilar orasida respublikamiz jamoasi vakillari hech

kimdan kam emasliklarini amalda isbotlashdi.

Bu yil respublikamiz o'quvchilaridan 10 nafari xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan yirik xalqaro

Zikrilla TESHABOYEV, Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

– Yangi yil oilamizga fayz, dasturxonimizga to'kinlik olib kelsin! Har bir kishi o'yilgan ezgu niyatlari ro'yobini ko'rsin! Yurtimizda tinchlik boqiy bo'lsin! Bayram muborak, aziz o'quvchilar!



N. SULTONOV olgan suratlar

musiqa va san'at festivallarida Gran-pri sohibi, 60 nafari esa birinchi o'rinni qo'lga kiritgani, futbol bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasi Osiyo chempionatining chorak finalida g'alaba qozonib, qit'amidagi o'rtta davlatdan biri sifatida kelgusi yili Yangi Zelandiyada bo'ladigan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani buning yaqqol tasdig'idir. Yoki Xitoy Xalq Respublikasining Nankin shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi ikkinchi Olimpiya o'yinlarini olaylik, unda 28 nafar yosh sportchimiz 4 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta

bronza medalga erishgani, ayniqs yaqinda Braziliyada bo'lib o'tgan maktab o'quvchilari o'rtasidagi jahon chempionatida yosh iqtidor egalari Javohir va Islombek Sindorovlarning navbatdagi g'alabasi mamlakatimiz nomini xalqaro maydonlarda yana bir bor namoyish etdi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun davlatimiz o'g'il-qizlarimizga katta ishonch, cheksiz hurmat bildirmoqda. Bu esa kelajagimizga, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat va ehtirom namunasidir.

Biz yangi yilda ham o'quvchilarimizning dunyo miqyosidagi yutuqlari yanada salmoqli bo'lishiga umid qilamiz. Zero, bu yo'lda ular uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilgan.

Kirib kelayotgan «Keksalarni e'zozlash yili» barchamizga muborak bo'lsin!

## ONA TABIATNING RANGIN JILOSI

**Rasm chizayotgan bola, albatta, o'z dunyosini tasvirlay boshlaydi, uning muhim jihatlarini sinchkov nazar bilan taftish etadi.**

Har yili Toshkent shahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va «Chinor ENK» ekologik-noshirlik kompaniyasi tashkilotchiligidagi muvaffaqiyatli o'tkazilib kelinayotgan «Qadrdon shahrim ekologiyasi» bolalar rasmlari ko'rik-tanlovining ahamiyati katta. Yosh rassomlar ishlarida atrof-muhit muhofazasi va chiqindilarni bartaraf etish, tuproq va biologik resurslar mavzulari, ona tabiatning rangin jilosi aks etadi.

Har galgidek, tanlovda bolalarning ekologik muammolarga munosabati va ularni hal qilish yo'llari haqidagi takliflari ifoda etilgan rasmlari munosib taqdirlandi. Katta va kichik yoshli ishtirokchi bolalardan har bir yo'nalish bo'yicha 3 nafari faxrlari o'rinlarni egallashdi. Valeriya Fomicheva Gran-pri sohibasi, deya e'lon qilindi. Tanlov g'oliblari mutasaddi tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Alisher FAYZULLAYEV

## ORZULARI USHALDI

*Dilhayotxon Erkinova Toshkent viloyati, Angren shahridagi 25-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi. Maktabda tashkil qilingan «Ilk qadam» to'garagining faol a'zosi.*



Tengdoshingiz yaqinda «Kamalak yulduzlari» bolalar adbiyoti festivali respublika bosqichida nazm va nasr yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Dilhayotxonning aytishicha, ushbu tanlovda ishtirok etib, g'olib bo'lish hamda ijodkor bolalar bilan do'stlashish unga xursandchilik ulashibdi. U maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarida Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva, Umida Abduazimova, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar singari bolalar shoirlarining she'rlarini mutolaa qilarkan. Kelajakdagi orzusi Zulfiyaxonim izdoshi bo'lish.

Uning «Yaxshi bola» nomli she'rini o'quvchilar hukmiga havola qilamiz.

**Mahmudjon AZIMOV.**  
**ZUBAYDA olgan surat**

### YAXSHI BOLA

Tursunboy yaxshi bola, Tinmay kitob o'qiya. O'lkamizni madh etib, Turli she'rlar to'qiya.

Maktabin sevar dildan, Bilim olib tinmaydi. U Vatanning erkasi, Yomon bola bo'lmaydi.

**Dilhayotxon ERKINOVA**

### Sayyam tabrigi

**Azamat UMAROV,**  
**Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:**

– Mana, ezgu niyatlar va ulkan orzular bilan yangi – 2015-yilni ham qarshi olmoqdamiz. Bu qutlug' damlarda o'tgan yil yutuqlarini sarhisob qilish yaxshi odat.

Yangi yil! Eng avvalo, Vatanimiz tinch, xonadonimiz farovon, dasturxonimiz yanada to'kin bo'lsin! «Keksalarni e'zozlash yili»da o'tgan yillarda boshlangan va joriy yilda rejalashtirilgan xayrli ishlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi rivojlanish, taraqqiyot bardavom bo'lsin!

## SHAHRIMIZ KO'RKI

*Istiqlol tufayli shahrimiz kundan kunga chiroy ochib bormoqda. Ayniqsa, shahrimizning Mustaqillik maydonidagi Mustaqillik va ezgulik monumenti atrofga ko'rk va salobat bag'ishlab turadi.*

Yurtimizda 28-dekabr – Mustaqillik va ezgulik monumenti ochilgan kun sifatida nishonlanadi.

Oppoq arka parvozga shay bo'lib turgan oq laylaklar bilan uyg'unlashib ketgan. Yodgorlikka eltuvchi yo'lak biz yoshlarning tilaklarimiz singari oppoq. Yo'lak bo'ylab yurarkanman, ko'nglimdagi orzularim ham qadamlarim singari ortib, ko'payib borayotgandek tuyuladi. Qarshimda murg'akkina bolasini bag'rda erkalayotgan ona siymosi... U go'dagiga shunday cheksiz mehr bilan qarab turibdiki, tikilib qarasangiz jonlanayotgandek, go'yo. Onasiga talpinayotgan go'dak... Bu ezgulik timsolida ona Vatan bizni o'z bag'rda erkalayotgandek, biz esa unga umid va mehr bilan tikilayotgandekmiz.

Aziz tengdoshlar, siz ham ushbu monument qarshisiga oshiqing. Zero, har bir ezgu amal, ezgu ishlarimiz zamirida onalar duosi, ularning mehrga to'la qalblari yotadi.

**Odina SAHOBIDDIN qizi,**  
**poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi**

## BIZ ORQADA QOLMAYMIZ!

*Kuni kecha 4-sinfda tarbiyaviy soat bo'lib o'tdi. Kun tartibida keyingi yil obuna masalasi ham bor edi.*

Sinfdagi 22 nafar o'quvchining ko'pchiligi kelgusi yil uchun sevimli nashriga obuna bo'lishdi. O'quvchilarning birini tug'ilgan kunida. Sinf sardori so'zga chiqib: «Ustoz, sinfdoshimizni tug'ilgan kuniga sovg'a sifatida «Tong yulduzi»ga bir yillik obuna qildirsak, qanday bo'larkin?» degan tashabbus bilan chiqdi. Uni hamma sinfdoshlar qo'llab-quvvatladi.

Munisa savol berdi: – Ustoz, men boshqa nashrga obuna bo'lgandim, «Tong yulduzi»ga ham obuna bo'lsammi, degandim? Ustozidan «Albatta», degan javobni olgach, xursand bo'lib ketdi.

Sinfidoshlaridan ortda qolishni



istamagan Nilufar:

– Men ham mavsumdan qolib ketmay, deb bir yilga obuna bo'lmoqchiman, – dedi. Shunday qilib, 4-sinf o'quvchilarining barchasi sevimli nashrlariga obuna bo'lishdi. Siz-chi, aziz o'quvchilar, siz ham «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldingizmi?

**Sayyora MIRZAYOROVA,**  
**Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 49-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchisi**

*Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabining 6-«A» va 7-«A» sinf o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasiga 100 foiz obuna bo'lishdi.*

## TASHABBUS ILG'ORLARI



Bunda ularning sinf rahbari Muqaddamxon Maqsudovaning hissasi katta. Mana, yigirma olti yildirki, Muqaddam opa o'quvchilarga ona tili va adabiyotdan dars berib kelmoqda. Hozirgi kunda o'quvchilaridan Ibrohim Toshpo'latov, Fotima Norqulova, Iskandar Shavqiddinov «Bilimlar bellashuvi»ning tuman, shahar bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallab, tanlovning respublika bosqichida ham faol ishtirok etishdi.

– «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilarimizning eng sevimli nashrlaridan biri. O'zimiz ham o'quvchilik paytlarimizda uning har bir sonini intiq kutib o'qiganmiz. O'quvchilarni har tomonlama bilimdon, yetuk insonlar bo'lib kamol topishida gazetaning ahamiyati juda katta, – deydi muallima biz bilan suhbatda. – Gazetaning har bir sonini o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilamiz. E'lon qilingan maqolalardan tarbiyaviy soatlarimizda keng foydalanamiz. Gazetaning 5-sahifasi orqali berilayotgan «Ingliz tilini o'rganamiz» ruknidagi materiallardan ota-onalar-u o'quvchilar juda xursand.



O'quvchilarimiz sevimli gazetalarini o'qibgina qolmay, balki o'zlari ham yozgan she'r, maqola, chizgan rasmlari bilan qatnashib turishadi.

Muallima bilan dildan suhbatlashib, oramizda Muqaddamxon Maqsudovadek davr bilan hamnafas, zukko, fidoyi ustozlar bor ekan, O'zbekistonimizning yorqin kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasi ishonchli qo'llarda ekanligiga amin bo'ldik.

**Dilorom HOTAMOVA**

**BILIM POYDEVORI MUSTAHKAM BO'LSIN,**

**- deydi Barno ISOXONOVA.**



*Odatda yil yakunlanib borar ekan, kishi beixtiyor o'tgan vaqt mobaynida nimalarga erishdi-yu, nimalarga ulgurmagani sarhisobini qiladi.*

Yaqinda poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida boshlang'ich sinflar fan oyligi doirasida «Eng yaxshi uslubiy birlashma portfoliosi» tuman ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. XTMFMTEB boshlang'ich sinflar uslubchisi Go'zal Sa'dullayeva tumandagi barcha maktablardan tashrif buyurgan vakillarga mazkur ko'rik-tanlov borasida xolis fikr bildirishlari lozimligini alohida ta'kidlab, ochiq darslar o'tilishi belgilangan sinflarga taklif etdi.

Maktab boshlang'ich sinflar uslub birlashma raisi Barno opa Isoxonova mehmonlar va ommaviy axborot vositalari vakillarini o'ziga xos ishonch bilan ochiq dars o'tilayotgan sinflarga boshlab borayotganligini ko'rib, xayolimdan «Tayyorgarlik yaxshi bo'lsa kerak», degan o'yi o'tdi. Zilola Rasulova rahbarligidagi 2-«V» sinf o'quvchilari ona tili darsida «So'z va gap», Nargiza To'xtaboyevaning 3-«A» sinfdagi shogirdlari o'qish darsida «Yangi yil archasida» mavzusini o'tishayotgan ekan. Ziroat Siddiqovaning 4-«V» sinf o'quvchilari odobnomada darsida «Bizning huquq va burchlarimiz» mavzusida huquqiy bilimlarini namoyish etishgan bo'lsa, Tursunoy Mo'minovaning 4-«B»dagi bilimdonlari matematikadan amallarni bajarishda ustaliklarini ko'rsatdilar.

Tanlovni kuzatar ekanmiz, bilimga chanchoq o'quvchilarning zukkolidan quvondik. Izlanuvchan, ta'lim sohasidagi yangiliklarni birinchilar qatorida tatbiq etishga intiluvchi maktab rahbari Nargiza Xolmuhammedovaning xizmatini alohida ta'kidlagimiz keldi. Tanlov yakunida ustozlar yuzidagi quvonchni ko'rib, ular uchun yil adog'ida ezgu ishlari soni yana bittaga ko'payganiga havasimiz keldi.



Yusuf OG'AYEV

**SHOGIRDLAR E'ZUZIDAGI USTOZ**

Har bir o'qituvchi yorqin mayoq singari o'z o'quvchilarini ezgulik va ma'rifat tomon chorlaydi, uning jamiyat uchun foydasi tegadigan, yurtga sodiq farzand bo'lishida bor kuch va mahorati ishga soladi. Shu bilan birga, ular qalbiga fidoyilikni singdiradi.

Ana shunday insonlardan biri Qarshi tumanidagi 3-umumta'lim maktabida qariyb qirq yildan beri yoshlarga fizika, matematika fanlari sir-asrorlarini o'rgatgan, o'tkir bilimi, kasb mahorati bilan minglab o'quvchilarning qalbidagi ilm nurini yoqqan ustozlarimizdan biri Barat Eshniyozovning nomini faxr bilan tilga olsak arziydi. Ustozning ko'plab shogirdlari o'qituvchilik kasbini egalladi.

Bugungi kunda ustozning qizlari Mavjuda, Mavluda matematika fanidan, Muiyassar geografiya, biologiya fanlaridan, Shahloxon boshlang'ich sinf o'qituvchisi, o'g'li Abdumannop umumiy texnika fanlari va mehnat

fani mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib borsa, nevaralaridan Mehrinisso biologiya, Maftuna fizika, Shomilbek kasbiy ta'lim, Gulniso boshlang'ich ta'lim, Visola pedagog-psixolog, Iroda matematika fanidan saboq bermoqda.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda sakson yoshni qarshilab, yetti farzandi, o'ttizdan ortiq nabiralari, o'n beshdan ortiq chevaralarining ardog'ida farovon hayotimizga, mustaqil Vatanimizga, tinch va dorilamon kunlarimizga shukrona aytib yashayotgan Barat donlarni ulkan bir chinor daraxtiga mengzash mumkin.

Hademay, yangi yil eshik qoqib keladi. Ustozning umr osmonini yana bir yulduzcha bezaydi. Yulduzlar yog'dusi maorif dunyosini yoritaversin.

Qursiya QO'LDOSHEVA,

*Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi metodisti*

**JAHONGIR G'OLIBLAR SAFIDA**

*Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 13-umumta'lim maktabiga tashrif buyurganimizda 870 dan ziyod o'quvchiga ega bu maskanda iqtidorli, iste'dodli o'quvchilarning ko'pligi bizni yanada xursand etdi.*

Maktab kutubxonachisi Kamola Yusupova birma-bir ana shunday o'quvchilarni xonaga boshlab kirar ekan, Prezident asarlari bilimdoni tanlovining g'olibi, 9-«V» sinf o'quvchisi Jahongir Turg'unboyev haqida to'liqlanib gapirdi. U o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, bilganlarini do'stlaridan ayamaydigan o'quvchi ekan.

Yosh geologlar tanlovi ishtirokchisi Sobirjon To'liqinov hamda Munisa Mirumarova haqida so'z ketganda, ustozlari bu o'quvchilarni maktab faxri ekanligini ta'kidladi.

Maktabdan qaytar ekanmiz, o'quvchilar orasida bu kabi iste'dod egalarining ko'pligidan suyundik.

Manzura UBAYDULLAYEVA,

ZUBAYDA olgan surat

29-dekabr 2014



Mirzohid

DAMINOV,

*Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi*

*boshlig'i:*

– Yangi yil barchamizga barakali kelsin!

O'quvchilarimiz ta'limda bundan-da yuksak cho'qqilarni egallab, respublikamiz sharafini yanada dunyoga yoysin!

Yangi yil muborak!



**MOHIR QO'LLAR MAHORATI**

*Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabi iqtidorli o'quvchilari ko'pligi bois, tumanda o'z nufuziga ega. Bu maskanda bir qancha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, «Mohir qo'llar» qizlarning sevimli mashg'uloti sanaladi.*



...Xona to'garak a'zolari tayyorlagan sam'at asarlari bilan bezatilgan: stol ustidagi yumshoq o'yinchoqlar-u choynak tagliklari, bolalar boshmog'i, qalamdonlar-u devorga o'rnatilgan zamonaviy parda namunalari... bularning barchasini 6-«B» sinf o'quvchilari tayyorlashgan. Muhimi, bunda o'quvchilar iste'molga yaroqsiz mahsulotlardan foydalanishadi. Ustoz Muqaddas Arslonova mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishi uchun tinim bilmaydi, to'quvchilikka oid yangiliklardan ilhomlanib, to'garak dasturiga kiritib boradi. Balki shundan bo'lsa kerak, ijod namunalarida zamonaviylik nafasi sezilib turadi. To'quvchilikni kruchok, spitsa yordamida amalga oshirishni uddasidan chiqqan Muslima Mirahmedova, Madinabonu Sariboyeva hamda Sevinch Zulfiorova to'garak a'lochilaridan. Hali yosh bo'lishiga qaramay, ular to'qigan ijodiy ishlar maqtovg'a loyiq. Muslima bir yashar jiyani o'zi to'qigan jemper va qalpoqcha bilan siylagan bo'lsa, Sevinch o'zi yasagan sichqonchasini dugonasiga sovg'a qildi. Ayniqsa, Madinabonuning yengidagi qora momiq ipdan to'qilgan nafis balero va yubkaning muallifi ham aynan uning o'zi.

To'garakdagi qizlar har bir ishida milliylikni aks ettirishga harakat qilishadi. Quvonarlisi, endi o'quvchilar «Yangi yil» bayramida yaqinlariga o'zlarini tayyorlagan mahsulotlarni sovg'a qilishmoqchi.

Nurbek QIDIRALIYEV

DIALOGUE

Lesson 16

Read the dialogue

Dildora: - Hello, Rustam.  
 Rustam: - Hi Dildora. How are you?  
 D: I'm fine. Today is the first day of winter.  
 R: What's your favorite weather?  
 D: I like warm weather. What about you?  
 R: I like cold weather.  
 D: What do you do when it is cold?  
 R: I go sledding.



Ibrohim FAYZIRAHMONOV,  
 Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi  
 54-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Nilufar HUSANBOYEVA,  
 poytaxtimizning  
 Yakkasaroy  
 tumanidagi

144-umumta'lim  
 maktabi rahbari,  
 2014-yil - «Yilning  
 eng yaxshi maktab  
 direktori» ko'rik-tanlovi  
 g'olibi:



- Barcha o'quvchilarimizni yangi -  
 2015-yil bilan samimiy qutlayman. «Keksalarni  
 e'zozlash yili»da kattalarga hurmatda,  
 kichiklarga izzatda bo'lib, faqat a'lo  
 baholarga o'qishlari, chet tillarini  
 mukammal o'rganib, barcha sohada  
 yuksak cho'qqilarni zabt  
 etishlarini tilab  
 qolaman!

Write True, False or don't know  
 from this dialogue:

1. It's the first day of winter.
2. Rustam likes winter weather.
3. Dildora likes cool weather. *F*
4. Dildora likes to be at home when it's cold.
5. Rustam goes swimming when it's hot
6. They both don't like cold weather.

MATCH THE OPPOSITES

(Qarama-qarshi so'zlarni moslashtiring)

Find the word on the left that means the opposite of the word on the right:

- |         |              |
|---------|--------------|
| Ugly    | drought      |
| Inside  | take         |
| Borrow  | professional |
| Flood   | outside      |
| Amateur | go           |
| Give    | beautiful    |
| Win     | lose         |
| Stay    | land         |

Risolat ISMOILOVA

RIDDLES

(Topishmoqlar)

I am purple, yellow, red and green  
 The King cannot reach me and neither can the Queen.  
 I show my colors after the rain  
 And only when the sun comes out again.



It's blue by night,  
 By day it's white.  
 It is cold and not dry,  
 It falls from the sky.

Farangiz RAHIMOVA,  
 Yunusobod tumanidagi 250-umumta'lim  
 maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

DRESS UP WARMLY

(Issiq kiyin)

The day is cloudy and the wind is bold.  
 Dress up warmly, you mustn't get cold!

Put on your jacket and zip it up tight,  
 Put on your left boot, put on your right.


Put on your scarf and put on your cap,  
 Put on your mittens and clap-clap-clap!

Go outside and play and play.  
 Come in again, and then we'll say.

Take off your jacket that was zipped up tight,  
 Take off your left boot, take off your right.

Take off your scarf, take off your cap,  
 Take off your mittens, and then take a nap!

Learn by heart this poem. Color and find warm dresses from this poem



TONGUE TWISTERS

(Tez aytishlar)



Seven Santas sang  
 ski songs.

Bobby brings  
 bright bells.



Umida UMAROVA

Two little boys were at play one day when a Snow-Maiden suddenly appeared before them and said, «I have been sent to give you New Year presents». She handed to each child a package, and in an instant was gone. Kamol and Farkhod opened the packages and found in them two beautiful books.

Many months passed and the Snow-Maiden came again to the boys. «I have brought you each another book?» said she, «and will take the first ones back to Santa Claus who sent them to you». «I wish that I could look through mine just once,» said Kamol; «I have only seen one page at a time, for when the leaf turns over it sticks fast, and I can never open the book at more than one place each day». «You shall look at your book,» said the Snow-Maiden, «and Farkhod, at his». And she lit for them two little silver lamps, by the light of which they saw the pages as she turned them.

The boys looked in wonder. Here was a page with ugly, black spots and scratches upon it; while

THE SNOW - MAIDEN'S NEW YEAR GIFT

(Qorqizning yangi yil sovg'asi)

the very next page showed a lovely little picture. «Who did this?» they asked. «Every page was white and fair as we opened it; yet now there is not a single blank place in the whole book!» - «Shall I explain some of the pictures to you?» said the Snow-Maiden, smiling at the two little boys. «But what makes this blot?» asked Farkhod. Said the Snow-Maiden sadly; when you told an untruth. All these blots and scratches that look so ugly, both in your book and in Kamol's, were made when you were naughty.



Each pretty thing in your books came on its page when you were good». «Oh, if we could only have the books again!» said Kamol and Farkhod. «That cannot be,» said the Snow-Maiden. «See! They are dated for this year, and they must now go back into Santa Claus's bookcase, but I have brought you each a new one. Perhaps you can make these more beautiful than the others». So saying, she vanished, and the boys were left alone, but each held in his hand a new book open at the first page. And on the back of this book was written in letters of gold, «For the New Year».

Dinara SHOKIROVA tayyorladi

Gambar OTA

## HAR BIR SO'ZI KUSH YOQAR

Tengdoshlar  
Jam bo'lishar.  
Yengil hazil  
Qilishar.

Har bir so'zi  
Xush yoqar.  
Atrofga  
Kulib boqar.

Hazil-huzul  
Ko'p mazza.  
Ko'ngillar sof,  
Top-toza.



## FIL MUSHUKNI ARDOQLAR

– Fil, mushukni ayt, nega  
Yaqin do'st deb bilasan?  
Qayda ko'rsang ardoqlab,  
Buncha hurmat qilasan?

– Arzir boshga ko'tarsam,  
Xalaskorni ulug'lab.  
Sichqon degan yovuzdan  
Yurar meni qo'riqlab.



## QUVONTIRDIK BARCHANI

Yasantirib archani,  
Quvontirdik barchani.  
Xursandchilik bo'ladi,  
Qorbobo ham keladi.

Qorboboning yonida,  
Quvnoq turar Qorqizi.  
Bolalarning shodlikdan,  
Yorishib ketar yuzi.

Archaning atrofiga,  
Jam bo'lamiz biz shodon.  
Yangi yil bizlar uchun,  
Baxt keltirgay o'sha on.

**Asalxon ATAXANOVA,**  
Xorazm viloyati,  
Hazorasp tumanidagi  
43-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchisi



Bayram tabrigi

**Dilmurod  
RAHMATULLAYEV,**  
Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi  
boshlig'i:

– Aziz va qadrlı o'quvchilar! Yangi yilda bilimingiz,  
iqtidoringiz bilan yangidan yangi marralarni  
egallashingizga ishonaman! Zero, Siz xalqimiz  
faxri, mustaqil yurtning kelajagisiz!  
Yangi yilingiz muborak!

## YANGI YIL OQSHOMIDA

Mana keldi Yangi yil,  
Qorlarni sovg'a qilib.  
Oshiqadi bu ko'ngil,  
Sog'inganimni bilib.

Ulg'ayamiz bir yoshga,  
Kelganda Yangi yilim.  
Omad ber qari-yoshga,  
Doim yayraydi dilim.

To'kinlik, baxt, omonlik,  
Bizlarga hamroh bo'lsin.  
Doim sog'lom bo'laylik,  
Ko'ngillar zavqqa to'lsin.



Qorlar misoli kumush,  
Aytilar pok tilaklar.  
Yangi yilim, kelgin xush,  
Baxtga to'lsin yuraklar.

**Umidaxon KARIMOVA,**  
Sergeli sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

## MARD ASKARLAR

Mard va jasur askarlar,  
Qalqon bo'lib yurishar.  
Vatan himoyasida,  
Doim sergak turishar.

Goh osmonda, goh yerda,  
Chegarada qalqonlar.  
Vatan uchun doimo,  
Bedor erur posbonlar.

Tuprog'ini e'zozlar,  
Tun-u kun erur bedor.  
Vatanni qo'riqlashga,  
Ular doimo tayyor.

**Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi  
42-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi**



## SARIQ ARCHA

Bugun chorshanba. Birinchi soat rasm darsi. Sinfimizdagi o'quvchilar bu fanni yaxshi ko'rishadi. Go'yoki rasm darsida hamma «Orzular qasri»ga sayohat qiladi va undagi go'zalliklarni oppoq qog'ozga tushiradi. Dars boshlandi. O'qituvchimiz «Yangi yil» mavzusida rasm ishlashni topshirdi.

Men Yangi yildagi orzularimni tasvirlar ekanman, xayolimda qish zavqini sezardim. Rasmni chizdim-u, archani bo'yashga kelganda kamchilik tug'ildi. Chunki o'tgan darsda yashil qalam bilan daraxtni bo'yayotib, sindirib qo'ygandim. Yangisini olish esdan chiqibdi.

O'ylay-o'ylay, noiloj archani sariq qalam bilan bo'yadim va uni o'qituvchimga ko'rsatdim. Ular men chizgan rasmni ko'rib, kulimsirab:

– Archa yashil rangda bo'ladi-ku, nega sen sariq qalam bilan bo'yading? – deb so'radi.

– Ustoz, o'zingiz rasm chizganingizda xayolingizdagi narsalarni qog'ozga tushiring, degan edingiz-ku. Mening xayolot olamimdagi archa sariq rangda edi-da. Shuning uchun archani sariq rangga bo'yadim, – dedim hozirjavoblik qilishga urinib.

Ustoz ahvolimni tushundi shekilli, mayin jilmaydi va «yaxshi» deb qo'ydi.

**Salomat G'ANIYEVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## ADABIYOT G'UNCHASI

Sharofat Shirinova Buxoro shahridagi 38-umumta'lim maktabi 9-«B» sinf o'quvchisi. She'riyatga qiziqadigan tengdoshingiz maskandagi «Adabiyot g'unchalari» to'garagi a'zosi. «Sog'lom bola» Davlat dasturini men qanday tushunaman» insholar tanloving viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, mazkur tanlovning respublika bosqichida faxrli 3-o'rin sohibi bo'ldi.

– Mening bu kabi yutuqlarni qo'lga kiritishimda, avvalo, barcha ustozlarim, ayniqsa, sinf rahbarim, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Lola Komilovaning mehnatini alohida e'tirof etaman. Buning uchun mehribon, jonkuyar ustozlarimdan minnatdorman.



**Shukrulla G'ULOMOV**

## BAYROQ SENI KUTADI, O'G'LON!

Odatiy ish kunlarining biri, tahririyatda doimgidek qizg'in jarayon. Yoshgina bolakayni yetaklab olganicha xonaga asta kirib kelgan onaxonni dastlab ko'pchilik sezmay ham qoldi. Chunki tahririyatga keluvchi mehmonlar juda ko'p. Quvonarlisi, farzandidagi iqtidorni sezgan ota-onalar huzurimizga tez-tez kelib turishadi.



Bizning bu galgi mehmonimiz esa boshqacha chiqib qoldi. Sho'x, g'ayrati ichiga sig'mayotgan jajji Shohjahon xonada eminerkin yurganicha kompyuterlarning tugmachasini bosar, xodimlarning

Eng qiziq jihati, taekvando haqida gap ketganda, bo'yagina sho'xligidan hech qayerga sig'mayotgan Shohjahon jiddiy bolaga aylanib qolgandi. Uning maqsadlari haqida bergan savolimizga javobidan esa bir hayratimizga o'n hayrat qo'shildi.

– Bayrog'imizni baland ko'tarmoqchiman!

Hali maktab ostonasidan hatlamagan bolaning bu qadar ishonch bilan aytgan gaplari barchamizni hayratlantirdi. Vaqti kelib, bu pahlavon yigitcha o'z orzusiga erishishi, shubhasiz. Aytganday, shu kunlarda Shohjahon Furqatzoda navbatdagi musobaqaga puxta hozirlik ko'rmoqda. Unga butun tahririyat nomidan omad tilaymiz.

Yusuf ABDULLAYEV



hay-hayiga quloq solay demasdi. Buvisi Barno opa ham nabirasini sho'xligini to'xtata olmay halak. Gapning ochig'i esa, bu bolakay hammamizga yoqib qoldi. Atrofini o'rab olganicha savolga tutdik. «Jar» sport sog'lomlashtirish majmuasida sportning taekvando turi, WTF yo'nalishi bo'yicha shug'ullanayotgan ekan. Bugungi kungacha musobaqalarda qatnashib, ikkita medal va bitta diplom olishga ham ulguribdi. Murabbiyi Davron To'laganovning ham yosh shogirdidan umidi katta.

Sayram tabrigi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 6-umumta'lim maktabining nemis tili fani o'qituvchisi Baxadir JAKSIMOV. «Yilning eng yaxshi

fan o'qituvchisi-2014» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi g'olibi:

– Aziz o'quvchilar, sizlarni yaqinlashib kelayotgan yangi – 2015-yil bilan chin yurakdan tabriklayman.

Yangi yilda sizlarga yangi-yangi zafarlar, quvonch va omad hamroh bo'lishini, o'qishlaringizda muvaffaqiyatlar, bilim cho'qqisini zabt etishda bitmas-tuganmas sabr-matонат, kuch-g'ayrat tilayman.



## CHAQQONLIK BAHSI

Bolajonlar, stol tennisini hech o'ynab ko'rganmisiz? Tennis koptokchasini ko'zdan qochirmaslik, raqibga yon bermaslik uchun bu o'yinda abjirlik va chaqqonlik juda asqotadi. Ayni kunda yurtimizda stol tennis Federatsiyasining 118 ta bo'limlari mavjud bo'lib, sportning bu turi bilan 14 ming nafardan ziyod bolalar va o'smirlar shug'ullanishadi.

«Sog'lom avlod uchun» stol tennis bo'yicha XI respublika o'smirlar turnirining tashkil etilishi yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etish, ushbu

sport turi bo'yicha sport ustalarini tayyorlashni maqsad qilgan. Qator tashkilotlar hamkorligida poytaxtimizning «Qushbegi» sport majmuasida bo'lib o'tgan musobaqada yurtimizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi

va Toshkent shahridan 1-bosqich g'olibligini qo'lga kiritgan jami 56 nafar o'smirlar qatnashdi.

Turnir g'oliblari tashkilotchilar tomonidan diplom va sovg'alar bilan taqdirlandilar.

O'z muxbirimiz



## JAJJI MALIKA

Suratdagi bu qizaloq poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi Malika Mahmudova bo'ladi. Sakkiz yoshli bu qizcha a'lochi bo'libgina qolmay, tumanda taniqli sportchilardan.

To'rt yashar farzandidagi nafis harakatlarni kuzatib turgan Yusuf aka 2010-yili qizchani «Ninachi» badiiy gimnastika to'garagiga beradi. Ilk sport sirlarini murabbiy Inara Nailovnadon o'rgangan o'quvchi hozirgi kunda 9-Olimpiya zaxiralari sport maktabida davom ettirmoqda. U ustoz Fotima Kenjayevaning sevimli shogirdlaridan biri. Malika o'tgan davr mobaynida qatnashgan barcha musobaqalarda faqat birinchi o'rinni egallab keldi. Jumladan, «Malenkaya Feya» sport musobaqasida g'oliblikka erishgan bo'lsa, «Ninachi» musobaqasida ham 1-o'ringa loyiq deb topildi. Joriy yilda esa «Umid nihollari» sport musobaqasi ikkinchi bosqichida navbatdagi 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Jajji sportchi kelajakda badiiy gimnastika bo'yicha jahon maydonlarida O'zbekiston sharafini himoya qilishni istaydi. Sportning jajji malikasiga zafarlar yor bo'lsin!

Nurbek NURALI o'g'li.  
N. SULTONOV  
olgan suratlar



## G'ALABA QUVONCHI

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 11-umumta'lim maktabida basketbol bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Shu kuni tumanimizning ko'plab maktablaridan sportchi qizlar yig'ildi. Musobaqada maktabimizdan Muqaddas Shamsuddinova, Zahro Abdurahimova, Hilola Abdug'aniyeva, Nilufar Abdusalomova va men ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdik.

Biz ushbu musobaqada g'olib bo'lganimizdan juda xursandmiz va endilikda «Umid nihollari» sport musobaqasiga tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

Madinabonu TO'LAGANOVA,  
Farg'ona viloyati,  
Beshariq tumanidagi 36-umumta'lim  
maktabining 9-sinf  
o'quvchisi



# «TONG YULDUZI» ARCHASI

1 O'ratildi kattakon archa, Atrofida jam bo'ldi barcha. «Sariq devni minib» olgan chol, Qorboboga aylandi darhol.



4 Qambar ota shivirlab dedi: - Bular o'zi asli zo'r edi. Qorbobo men bo'lishim kerak, Tog'-u toshni ko'rishim kerak...



2 Qorqiz bo'ldi Kavsar opamiz, Yangicha bir o'yin topamiz. So'z boshladi Anvar Obidjon, Qayga ketdi, «Tulki va quyvon?»



3 Adashboyev der adashmanglar, Yangi yilda so'z talashmanglar. Dilshod Rajab «ayiqcha» bo'lar, Qorboboga qo'shilib kelar.



8 Abdurahmon Akbar turar lol, Daftariga to'ldirib savol, Ulug' kunga yetdik yoronlar, G'animatdir bizga bu onlar.

9 Feruzaxon yaxshi ish qilgan, To'g'ri baho berishni bilgan. Feruz degan rassomni chorlab, So'z boshlagan ko'zlari porlab.



10 -Yangi yilda yangicha rukn, Yozuvchi va shoirlar uchun! «Tong yulduzi» tong yulduzida, «Gulxan», «G'uncha» uning izida.



5 Umidadan umid qilamiz, She'rlarini yaxshi bilamiz. Uzoq yillar bizda ishlagan, «G'uncha»ni ham juda xushlagan.



6 Ashurali Jo'rayev hamon, Ijodkor-da turar biz tomon. Yangi yilda berib muzqaymoq, Dilimizni qilar bo'ldi chog'



7 Yusuf og'a keldi azonda, Nima bor deb qora qozonda. «Ayb mendami talantli bo'lsam?!» «Lafz»ni yozib aqlga to'lsam.



11 Keksalarning duosin olib, Bu dunyoning tinchligin quchsang. Axtamquli, yaxshi bo'lardi, Burgutlarga qo'shilib uchsang.

## Pazanda qizgan!



## QORQIZDAN YANGI SALAT

Bolajonlar, barchamiz intiqib kutgan Yangi yil bayrami eshik qoqib turibdi. Bayram kuni dasturxonimizni chiroyli yasatib, o'zingiz tayyorlagan taomlar bilan yaqinlaringizni xushnud qilmoqchi bo'lsangiz, biz tavsiya qilayotgan mevali salatni tayyorlab ko'ring.

**Kerakli mahsulotlar:** 1 ta olma, 1 ta apelsin, 2 ta kivi, 1 ta banan, 2-3 dona yong'och, 1 quti yogurt.

**Tayyorlanishi:** hamma masallqlarni to'rtburchak shaklida to'g'rab, aralashiriladi. Yong'och maydalanib, ustiga sepiladi va yogurt qo'shiladi. Tayyor salat likopchalarga solib, dasturxonga tortiladi.

8 Yoqimli ishtaha!

## CHIROQCHALAR YOSHI NECHADA?

Bolajonlar, har Yangi yil bayrami arafasida archa yasatasiz-a? Yam-yashil archaga rango-rang o'yinchoqlarni osish kishiga o'zgacha zavq-u shavq bag'ishlaydi. Mana, archa ham tayyor, uning eng uchiga yulduzchasini o'rnatib, kifoya. Uy to'rida bezanib turgan archamizga nimadir yetish-mayotgandek... Ha-ya, chiroqlarni ilish esdan chiqibdi-ku! Mana, qizil, yashil, sariq, moviy rangda tovlanib turuvchi chiroqlarni ham archamiz atrofiga ildik. Qanday chiroyli! Archamiz turli chiroqlar bilan yanada go'zallashib ketdi. Bilasizmi, bolajonlar, bundayin rangli chiroqlar bir necha asr ilgari

kashf qilingan ekan. Undan ilgari archaga shamlar ilingan bo'lib, keyinchalik ularning o'rmini rangli lampalar, so'ngra mitti chiroqchalar egallagan. Elektr chirog'i kashfiyotchisi Tomas Edison lampalarni ixtiro qilgach, uning shogirdi Edvard Jonson uyidagi

archani 120 ta rangli chiroqchalar bilan bezatgan. Aytgancha, elektr chiroqchalar shodasi Yangi yil arafasida o'zining 132 yilligini nishonlaydi. **OZODA tayyorladi**

### Bilasizmi??

Ilk marta archa bezatish Latviyada urf bo'lgan, 1510-yilga kelib, Rigada Yangi yil archasi bezatilgan.

29-dekabr 2014

Bosh muharrir  
**Feruza ADILOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi  
muharrir  
Axtamquli  
**KARIMOV**  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li

**Manzilibiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 29417  
Buyurtma - S 1732

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markazi Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.